

O'ZBEK TILIDAGI BA'ZI BOSH KIYIM NOMLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Normurodova Farog'at Tojimurod qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi bosh kiyim nomlari lingvistik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida bosh kiyimlarning leksik-semantik xususiyatlari, madaniy va milliy omillar bilan bog'liqligi, shuningdek, ularning til tizimidagi o'rni yoritilgan.

Abstract. This article analysis of the names of headgear in Uzbek from a cross-linguistic point of view. In the course of the study, the lexical-semantic features of headgear, its connection with cultural and national factors, as well as their place in the language system, will be highlighted.

Kalit so'zlar: bosh kiyim, leksika, chog'ishtirma tadqiq, madaniyat, semantika, o'zbek tili.

Key words: headdress, lexicon, hybrid research, culture, semantics, Uzbek language.

Har bir etnik guruh madaniy ko'rinish va etnik ongning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ajdodlar an'ana va urf-odatlariga asoslanib, atrofdagi voqelikni idrok etadi. Xalq etnik identifikatsiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri kiyimdir. Kiyim nomlari inson dunyosining lingvistik manzarasida alohida o'rin tutadi, ular bevosita xalqning hayoti, tarixi, madaniyati bilan bog'liq, rivojlanishi va iste'molda bo'lishi esa etnomadaniy hamjamiyat hayotida yuz beradigan ijtimoiy o'zgarishlarga borib taqaladi. Kiyim faqat vazifasi bilan cheklanmay, u eng barqaror etnik ko'rsatkichlardan biri sifatida xalq ruhiyati va hayot tarzini ifodalovchi ijtimoiy vazifani ham bajaradi. Xalq kiyimlarining milliy majmuasi shakllanishiga axloqiy va estetik g'oyalar, avlodlar an'analari, moddiy



va iqtisodiy turmush sharoitlari, shuningdek, boshqa etnik guruhlar bilan aloqalari ta'sir ko'rsatadi. Ushbu leksikaning o'ziga xosligi shundaki, uning semantikasini tahlil qilish voqelikka, etnolingvistik ma'lumotlarga doimiy murojaat qilishni talab qiladi. Kiyim nomlarini ajralmas tuzilma sifatida tadqiq etish iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy turmush sharoitlarining o'zgarishi natijasida millat etnosining an'anaviy kiyimi duch kelgan o'zgarishlarni hisobga olishni taqozo etadi. Kiyim nomlarini o'rganish ularning o'zbek tili dialektlarida atalish xususiyatlarini tizim sifatida tahlil qilishga undaydi. Kiyim va uning nomlari ko'plab olimlarning maxsus tadqiqoti ob'ektiga aylangan (D.K.Zelenin, I.Nebedeva, N.P.Grinkova, G.S.Maslova, G.V.Sudakov, R.I.Kudryashova, Y.P.Osipova va boshqalar). Kiyimni tavsiflovchi va nomlovchi dialekt leksikasiga bo'lgan qiziqish quyidagi holatlar bilan belgilanadi: birinchidan, bu qatlam insonning amaliy va ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'liq, shuning uchun uni o'rganish tadqiqotchini o'zbek etnosining madaniy va tarixiy rivojlanish xususiyatlarini tushunishga yaqinlashtiradi. Ikkinchidan, bu leksikani tavsif etish milliy tilning leksik boyligini to'liq anglash imkonini beradi, uchinchidan, til leksikasining shakllanishi va faoliyat qonuniyatlarini chuqurroq tushunish uchun zamin yaratadi. Turkiy xalqlar milliy kiyimi nomlari tadqiqi dastavval rus olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Chunonchi, O.A.Suxaryeva O'rta Osiyo xalqlari bosh kiyimlari va ularga xos belgi-xususiyatlar haqida ma'lumotlar e'lon qilgan [2]. Olima Samarqandda tug'ilgan bo'lib, sharqshunos, etnograf, O'rta Osiyo bo'yicha mutaxassis sifatida faoliyat yuritgan. Xakas xalqlari kiyimlari nomlari M.P.Chebodayeva [2], qozoq milliy kiyim nomlari I.B.Zaxarova, R.D.Xodjayevalar tomonidan tadqiq etilgan

Bosh kiyim termini o'zbek adabiy tilida ruscha *golovnoy uborning* kalkasi sifatida paydo bo'lgan [3] ligini M.Asomiddinova qayd qilib o'tadi. Termining kalkalanishi borasida olim haq bo'lishi mumkin, ammo o'zbek xalq maqollarini kuzatish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, xalqimizda boshga

kiyiladigan kiyimlar qadimdan mavjud bo'lgan hamda mavsumga qarab o'zgarib borgan. Chunonchi:

O'g'riga o'g'rilikdan mol kirmasa, o'z *bo'rk*ini o'zi o'g'iraydi.

Bo'rk – qadimgi bosh kiyimi. Bo'rk – “bosh kiyimning bir turi”, “qalpoq”. Bosh omon bo'lsa, bo'rk topiladi (maqol). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “qopla” “yop” ma'nosini anglatgan *böry* – fe'lidan... -k qo'shimchasi bilan yasalgan... keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qolgan... o'zbek tilida ö unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan: *böry* +k = *böryk* > *börk* > *bork* [116, 78].

Lug'atlarda qayd etilishicha, bo'rk hayvon terisidan tikilib, qimmatbaho qalin gazmol bilan qoplangan [1,62]. *Bo'rk* haqidagi dastlabki ma'lumot Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida keltirilgan: bo'rk – börk, qalpoq, bosh kiyimi. Maqol: tatsiz to'rk bõlmas, bashsiz börk bõlmas – boshsiz bo'rk bo'lmaganidek, totsiz turk ham bo'lmaydi [1, 331].

M.Asomiddinovaning yozishicha, bo'rk qadimgi boshga kiyiladigan har qanday buyumni anglatgan.

E.Fozilov va F.Isoqovlarning lug'atlarida berilgan ma'lumotlar ham ushbu fikrga hamohang: bo'rk – bosh kiyim; qalpoq, telpak, bo'rk: *Mavlono hamul masjidg'a kirganda... boshidag'i eski bo'rk bila erdi*. “Mahbub-ul qulub”.

Bo'rk – qalpoq, telpak, umuman bosh kiyimi; “*Bir os bo'rkimni yibordim*”

Boshqa bir lug'atda bo'rkka qishlik kiyim deya aniqlik kiritiladi va uning manbalari ham sanab o'tiladi: bo'rk – qishlik qalpoq, telpak, mo'ynadan tikiladigan bosh kiyim.

Bo'rk – charmdan, qorako'ldan yoki sherozi mo'ynadan silindrsimon qilib tikilgan erkaklar qishlik bosh kiyimi.

Sipohning savlati – savsar telpagi.





Telpak – 1. Tepasi yumaloq, doira shakli, tekis mo'yna jiyakli issiqbosh kiyimi. 2 s.t. Mo'ynali har qanday issiq bosh kiyimi (quloqchin, papax, tumoq va sh.k) [134, 158].

Telpak – erkaklarning issiq (mo'ynali) bosh kiyimi; yumaloq, tepa va mo'ynali jiyakdan tuzilgan. Teri charm ulgi yordamida bichiladi. Tepa qismi kalta tukli mo'yna (asosan, qorako'l)dan, jiyagi qunduz mo'ynasidan tikiladi; astariga uzun tukli (qo'y yoki tulki) mo'yna ishlatiladi... Ba'zi telpaklarda tepa qismiga baxmal, jiyagiga uzun tukli (tulki, suvsar) mo'yna ishlatiladi [5]. Ko'rinadiki, otabobolarimiz qadimdan qo'y, tulki, suvsar singari hayvonlar terisidan tikilgan issiq kiyimboshdan foydalanishgan va bu kiyim nomi kulturema sifatida maqol tarkibidan o'rin olgan. **Savsar** – o'rmonda yashaydigan qimmatbaho to'q qo'ng'ir mo'ynali, kichik sut emizuvchi yirtqich hayvon: shu hayvonning antiqa terisi [7].

Gupping qalin bo'lsa ham qishdan qo'rq,

Do'pping qalin bo'lsa ham mushtdan qo'rq.

Do'ppi – Avra-astarli, ko'pincha, qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan guldor yoki gulsiz, to'garak yoki to'rtburchak shakldagi bosh kiyimi.

Do'ppi – yengil bosh kiyim. Qadimdan eron va turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Turkiston xalqlari orasida (ayniqsa, O'zbekiston va Tojikiston hududida) milliy kiyim turiga aylangan. Boshqa xalqlar do'ppilaridan o'zbek do'ppilarilari o'ziga xos shakli, bezagi bilan farqlanadi. Do'ppi uch qismdan iborat – tepa (aylana va to'rtburchak shaklida bichiladi), kizak (gardish shaklida) va jiyakdan tuzilgan, respublikaning turli joylarida turlicha bezatiladi; qismlari birlashtirilganda turlicha ko'rinishga ega bo'ladi.

Do'ppi – hozirgi o'zbek tili va turkiy tillarning ayrimlarida quyidagicha fonetik va leksik variantlarda uchraydi: Farg'ona vodiysida do'ppi; Toshkent shevasida to'ppi; Buxoro tojiklari va ikki tilli (o'zbekcha va tojikcha so'zlashuvchi) aholi tilida *kallapo 'sh // kalavush*, Pastdarg'om, Shahrisabz, Kitob,

Samarqandda *qalpoq*, *qalpog'*. Ammo bu joylarda har xil rangli chit yoki satindan iroqi usulda cho'ziqroq shaklda tikilgan va salla tagidan kiyiladigan do'ppi turi ham *kallapo'sh* // *kalapo'sh* deb yuritiladi... Qadimiy yozma manbalarda *do'ppi* (*to'ppi*) so'zlari uchramaydi. Tarixda arabcha *taxya* // *taqya*, forsha *kallapo'sh* turkcha *qalpoq* so'zlari bor. Tatar, no'g'oylarda *taq'ya*, marvaridlar qadab tikiladigan turini *kalfak*, qozoqlarda – *dopi*, *taqiya*, turkmanlarda – *taxya*, tojiklarda – *taqi*, *kalapo'sh* va hokazo.

Do'ppining xillari ko'p. Uning *araqchin* deb nomlangan turi *papak*, *quloqchin*, *bo'rk*, *qalpoq* astarini kirlatib qo'ymaslik maqsadida salla tagidan kiyiladi. Yoz uchun surpdan, qish uchun esa tuya junidan to'qilgan matodan tikiladi. Do'ppining bu turini Buxoro tojiklari *shappo'sh* (shab-kecha, po'sh-po'shidan – berkitmoq, yopmoq) deyishadi [7].

Do'ppi Turkiston xalqlari orasida (ayniqsa, O'zbekiston va Tojikiston hududida) milliy kiyim turi sifatida keng tarqalgan, o'zbek va tojik xalqlarining milliy kodiga aylangan lingvokulturema sanaladi va o'zbek xalq maqollarida xuddi shu shaklda uchraydi. Kuzatishlar *do'ppi* lingvokulturemasining *qalpoq* varianti ham etnolingvistik birlik sifatida qo'llanganligini ko'rsatdi:

Kafan kiygan ketadi, *qalpoq* kiygan qaytadi.

Qalpoq – 1. Yupqa namatdan qilingan bosh kiyimi... 2. s.t. Kaska. Mis qalpoq. Po'lat qalpoq. 3. dial. Do'ppi, kalapo'sh. 4. Narsalar ustini qoplab, berkitib turadigan soyabon yoki qalpoq. 5. Biror narsaning qalpoqli qismi, kallagi [3, 545].

Qalpoq – qadimgi, hali badiiy to'qima buyumlar paydo bo'lmagan davrlarda kishilar boshlarini teri yoki barglar bilan qoplab yurishgan. Bu buyum M.Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida *bork* sifatida keltirilib, “*qalpoq*”, “*bosh kiyimi*” ma'nosini ifodalagan [1, 331].

Qalpoq – *qoploq* deb yuritilgan. Keyinchalik, odamlar o'troq hayotga ko'chgan, to'qimdan bichib tikilgan, guldor, hashamli bosh kiyim turlari paydo





bo'lib, oldingi *qoploq* nomi metateza yo'li bilan *qoploq* > *qalpoq* shakliga kelgan. *Qalpoq* // *bo'rk* juda qadimiy kiyim shakli bo'lib, u arxeologik qazilmalarda topilgan rasm va haykalchalarda ham uchraydi. V.A.Vyatkinning "Afrosiyob" nomli kitobida keltirishicha, qazilmalarning birida eramizning VI asrlariga oid haykalcha topilgan. Uning boshidagi *qalpog'i* kigizdan tikilganligi aniqlangan... Boburning quyidagi mulohazalaridan *bo'rk* va *qalpoq*ning alohida-alohida bosh kiyimlar ekanini anglash mumkin: "*Bovujudkim, ulug' yosh yashab, oq soqollik bo'lub edi, xushrang qizil, yashil abrashimni kiyar edi. Qora bo'rk kiyar edi yo qalpoq*".

Leksikografik manbalarda *qalpoq* so'zi qozoq, qirg'iz, turk, tatar tillariga oidligi aytiladi. *Qalpoq* do'ppi ustidan kiyiladi va iqlimiy sharoit talablariga mos ravishda turli xil matolardan tayyorlangan. N.K.Dmitriyev *qalpoq* so'zi chig'atoy tiliga mansub bo'lib, qozoq, qirg'iz, tatar va usmonli turk tillarida ham uchrashi haqida yozgan... Samarqand, Shahrisabz va Kitob shaharlarida hamda Nurato va ba'zi rayonlarda *qalpoq* so'zi do'ppi o'rnida ishlatiladi.

Maqollarda *bo'rk, telpak, do'ppi, qalpoq* kabi bosh kiyim nomlari kulturema sifatida ishtirok etganligi ayon bo'ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi bosh kiyim nomlari xalqning madaniyati, tarixiy rivoji va turmush tarzini aks ettiradi. O'zbek tilida bosh kiyimlar milliylikni kuchli ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. – Т.: Фан, 1981. – 116 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Тўртинчи жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2020. – 592 с.

3. Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. – Т.: Ўқитувчи, 2003. – 320 б.
4. Жабборов И. Жаҳон этнологияси асослари. – Т: Янги аср авлоди, 2005. – 320 б.
5. Чебодаева М.П. Хакасская народная одежда. – СПб.: Издательство, 2012. - 176 с.
6. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.
7. Исоқов Б. Наврӯз байрамларининг маросим таомлари // Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари. Тошкент-Наманган, 2007. – 206 б.